



FAVQULODDA VAZIYATLARNING OLDINI OLISH  
VA BARTARAF ETISH SOHASIDA KASBIY  
MALAKALARNI RIVOJLANTIRISH BO'YICHA  
TARMOQ KENGASHI

## KASBIY STANDART

### Favqulodda vaziyatlarda qutqaruvchilar



“Favqulodda vaziyatlarda qutqaruvchilar” kasbiy standarti 2025-yil 18-dekabrda Kasbiy malakalarni rivojlantirish bo‘yicha Respublika kengashi majlisining 114-son bayoni bilan tasdiqlangan “Kasbiy standart shakli” hamda Milliy malaka tizimini rivojlantirish instituti direktorining 2025-yil 19-dekabrda 55-son buyrug‘i bilan tasdiqlangan “Kasbiy standartlarni ishlab chiqish va yangilash metodologiyasi”ga muvofiq, Favqulodda vaziyatlarning oldini olish va bartaraf etish sohasida kasbiy malakalarni rivojlantirish bo‘yicha tarmoq kengashi tomonidan ishlab chiqilgan.

# KASBIY STANDART

## Favqulodda vaziyatlarda qutqaruvchilar

---

Reyestr raqami:

UZ-KS-2026-T1.0-0002



### 1. Umumiy ma'lumotlar

1. Kasbiy standartning qo'llanilish sohasi: Favqulodda vaziyatlarda qutqaruvchilar kasbiy standarti Qutqaruvchi, Qutqaruvchi-kinolog, Qutqaruvchi-yo'riqchi, Qutqaruvchi-alpinist, Qutqaruvchi-haydovchi, Qutqaruvchi-feldsher, Qutqaruvchi-g'avvos, Qutqaruvchi-yong'in o'chiruvchi, Qutqaruv smena boshlig'i, Qutqaruvchi-alloqachi kasblari bo'yicha xodimlarga malaka talablarini belgilash, ularning malakasini mustaqil baholash, ta'lim dasturlarini ishlab chiqish shuningdek, tashkilotlarda xodimlarni boshqarish sohasida keng ko'lamli vazifalarni hal qilishda qo'llaniladi.

2. Ushbu Kasbiy standartda quyidagi asosiy tushunchalar va atamalar qo'llaniladi:

bilim – kasbiy faoliyat doirasidagi vazifalarni bajarish uchun zarur bo'ladigan, o'rganilgan va o'zlashtirilgan ma'lumotlar;

favqulodda vaziyat – odamlar qurbon bo'lishiga, ularning sog'lig'i yoki atrof tabiiy muhitga zarar yetishiga, jiddiy moddiy talafotlar keltirib chiqarishga hamda odamlarning hayot faoliyati sharoiti izdan chiqishiga olib kelishi mumkin bo'lgan yoki olib kelgan avariya, halokat, xavfli tabiiy hodisa, tabiiy yoki boshqa ofat natijasida muayyan hududda yuzaga kelgan vaziyat;

favqulodda vaziyatlarni bartaraf etish – favqulodda vaziyatlar ro'y berganda o'tkaziladigan hamda odamlarning hayotini asrab qolish va sog'ligini saqlashga, atrof tabiiy muhitga yetkaziladigan zarar va moddiy talafotlar miqdorlarini kamaytirishga, shuningdek, favqulodda vaziyatlar zonalarining kengayishiga yo'l qo'ymaslikka hamda xavfli omillar ta'sirini tugatishga qaratilgan qutqaruv ishlari va kechiktirib bo'lmaydigan ishlar majmui;

favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish – aholi va hududlarni favqulodda vaziyatlarning oldini olish va ularni bartaraf etish bo'yicha tadbirlar majmui, vositalar hamda usullar tizimi;

favqulodda vaziyatlarning oldini olish – oldindan o'tkaziladigan hamda favqulodda vaziyatlar ro'y berishi xavfini imkon qadar kamaytirishga, bunday vaziyatlar ro'y bergan taqdirda esa, odamlarning hayotini asrab qolishga va sog'lig'ini saqlashga, atrof tabiiy muhitga yetkaziladigan zarar va moddiy talafotlar miqdorlarini kamaytirishga qaratilgan tadbirlar majmui;

FVDTning funksional quyi tizimi – aholini va hududlarni favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish bo'yicha belgilangan funksiyalarni bajaruvchi vazirliklar va idoralar hamda boshqa tashkilotlarni o'z ichiga olgan quyi tizim;

FVDTning hududiy quyi tizimi – tegishli hududda aholini va hududlarni favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish tadbirlarini tashkil etish va amalga oshirish bo'yicha belgilangan funksiyalarni bajaruvchi mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlarini o'z ichiga olgan quyi tizim;

fuqaro muhofazasi – harbiy harakatlar olib borish paytida yoki shu harakatlar oqibatida yuzaga keladigan xavflardan O'zbekiston Respublikasi aholisini, hududlarini, moddiy va madaniy boyliklarini muhofaza qilish maqsadida o'tkaziladigan tadbirlar davlat tizimi;

informal ta'lim – aniq maqsadga yo'naltirilgan, ammo institutsionallashtirilmagan (muayyan qoidalar va normalarni mujassamlashtirmagan), rasmiy yoki norasmiy ta'limdan ko'ra kamroq tashkillashtirilgan va tarkiblashtirilgan hamda oiladagi, ish joyidagi, yashash joyidagi va kundalik hayotdagi o'quv faoliyatini o'z ichiga olgan ta'lim shakli;

kasb – ko'nikma va bilimlarni talab qiladigan muayyan funksiyalar va vazifalarni bajarish bilan bog'liq bo'lgan faoliyat turi;

kasb xaritasi – kasb nomi, mehnat funksiyalari tavsifi, kasbga qo'yiladigan asosiy xususiyatlar va talablarni o'z ichiga olgan muayyan kasb to'g'risidagi tizimlashtirilgan ma'lumotlarni o'z ichiga olgan kasbiy standartning tarkibiy elementi;

kasbiy standartlar reyestri – bu kasbiy standartlarning nomi, qamrab olingan kasblar, uni qabul qilishga oid qaror (buyruq) rekvizitlari hamda amal qilish muddatini o'z ichiga olgan tizimlashtirilgan ro'yxat;

ko'nikma – mehnat vazifasi doirasida alohida yoki yakka harakatlarni jismoniy va aqliy jihatdan bajarish;

mehnat funksiyasi – kasbiy faoliyat doirasida xodim tomonidan belgilangan natijaga erishish uchun amalga oshiriladigan mehnat vazifalari majmui;

mehnat vazifasi – mehnat funksiyasi doirasida xodimga yuklanadigan (topshiriladigan) ishning aniq turi;

mehnat harakatlari – xodimning mehnat predmeti bilan o'zaro ta'sirida muayyan mehnat natijasiga erishiladigan jarayon;

norasmiy ta'lim – ta'lim xizmatlari taqdim etilishini ta'minlovchi shaxs yoki tashkilot tomonidan institutsionallashtirilgan (muayyan qoidalar va normalarni mujassamlashtiruvchi), aniq maqsadga yo'naltirilgan va rejalashtirilgan, shaxsni butun hayoti davomida o'qitishdagi rasmiy ta'limga qo'shimcha va (yoki) uning muqobil shakli;

qutqaruvchi – muayyan dastur bo'yicha qutqaruv ishlariga tayyorlangan va belgilangan tartibda attestatsiyadan o'tgan O'zbekiston Respublikasi fuqarosi;

qutqaruv vositalari – qutqaruv ishlarini olib borish uchun mo'ljallangan texnik, ilmiy-texnik va intellektual mahsulot, shu jumladan maxsus aloqa va boshqaruv

vositalari, texnika, asbob-uskunalar, aslaha-anjomlar, mol-mulk, qutqaruv ishlarini bajarish texnologiyasiga doir uslubiy materiallar, videomateriallar, fotomateriallar, elektron hujjatlar, shuningdek elektron-hisoblash mashinalari uchun dasturiy mahsulotlar va ma'lumotlar bazalari, boshqa vositalar;

qutqaruv ishlari – favqulodda vaziyatlar zonasida odamlarning hayotini asrab qolish va sog'lig'ini saqlash, yuridik hamda jismoniy shaxslarning mol-mulkini, atrof tabiiy muhitni muhofaza qilish, favqulodda vaziyatlarni bartaraf etish va ularga xos bo'lgan xavfli omillar ta'sirini yo'qotish yoki imkon qadar kamaytirishga qaratilgan harakatlar;

qutqaruv tuzilmasi – favqulodda vaziyatlarning oldini olish va ularni bartaraf etish ishlarini olib borish uchun mo'ljallangan, asosini maxsus texnika, asbob – uskunalar, aslaha-anjomlar va boshqa qutqaruv vositalari bilan ta'minlangan qutqaruvchilar bo'linmalari tashkil etgan mustaqil tuzilma yoki qutqaruv xizmati tarkibiga kiruvchi tuzilma;

qutqaruv xizmati – faoliyati bo'yicha yagona tizimga birlashtirilgan, asosini professional qutqaruv tuzilmalari tashkil etgan, favqulodda vaziyatlarning oldini olish va ularni bartaraf etishga doir vazifalarni hal qilish uchun mo'ljallangan boshqaruv organlari, kuchlar va vositalar majmui;

tabiiy hamda texnogen xususiyatli favqulodda vaziyatlar (keyingi o'rinlarda – favqulodda vaziyatlar) – muayyan hududda odamlar qurbon bo'lishiga, odamlarning sog'lig'iga yoki atrof tabiiy muhitga zarar yetishiga, jiddiy moddiy talafotlarga hamda odamlarning hayot faoliyati sharoitlari buzilishiga olib kelishi mumkin bo'lgan yoki olib kelgan avariya, halokat, xavfli tabiiy hodisa, tabiiy ofat yoxud boshqa ofat natijasida, karantinli va inson uchun xavfli bo'lgan boshqa yuqumli kasalliklar tarqalishi natijasida yuzaga kelgan vaziyatlar.

3. Kasbiy standartni ishlab chiqishga asos bo'lgan normativ-huquqiy hujjatlar:

O'zbekiston Respublikasining 2008-yil 26-dekabr "Qutqaruv xizmati va qutqaruvchi maqomi to'g'risida"gi 195-son qonuni;

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 30-sentabr "O'zbekiston Respublikasi milliy malaka tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ – 345-son qarori;

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016-yil 24-avgust "Iqtisodiy faoliyat turlarini tasniflashning xalqaro tizimiga o'tish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 275-son qarori (IFUT-2.1);

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 9-sentabr "Aholini favqulodda vaziyatlarda harakat qilishga va fuqaro muhofazasi sohasida tayyorlash tartibini takomillashtirish to'g'risida"gi 754-son qarori;

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining, 2020-yil 20-oktabr "Yong'in xavfsizligi qoidalarini tasdiqlash to'g'risida"gi 649-son qarori;

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining, 2023-yil 11-avgust «Favqulodda vaziyat ro'y berish xavfi yoki favqulodda vaziyat ro'y berganligi haqida

xabar berishning avtomatlashtirilgan tizimini rivojlantirish hamda undan samarali foydalanish” ni tashkil etish to‘g‘risidagi 361-son qarori;

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 29-may ““112” yagona dispetcherlik xizmati faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida” gi 304-son qarori;

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 17-iyun “O‘zbekiston Respublikasi milliy malaka tizimini tartibga solishga qaratilgan ayrim normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to‘g‘risida”gi 369-son qarori.

4. Ushbu kasbiy standartda quyidagi qisqartmalar qo‘llaniladi:

CO<sub>2</sub> – Karbonat angidrid

FV – favqulodda vaziyat;

GPS – Global joylashuv tizimi

T/r – tartib raqami

TMR – Tarmoq malaka ramka

## II. Kasbiy standartning pasporti

1.	Kasbiy standartning nomi:	Favqulodda vaziyatlarda qutqaruvchilar	
2.	Kasbiy faoliyatning asosiy maqsadi:	Favqulodda vaziyatlarni oldini olish va bartaraf etish sohasida aholi va hududlarni tabiiy hamda texnogen xususiyatli favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish va xavfsizligini ta'minlash	
3.	IFUT bo'yicha seksiya, bo'lim, guruh, sinf va kichik sinf:	<p>P seksiyasi Davlat boshqaruvi va mudofaa; Majburiy ijtimoiy ta'minot</p> <p>84 Davlat boshqaruvi va mudofaa; Majburiy ijtimoiy ta'minot</p> <p>84.2 Davlat tomonidan umuman jamiyatga xizmatlar ko'rsatish</p> <p>84.25 Favqulodda vaziyatlarda xavfsizlikni ta'minlash bo'yicha faoliyat</p> <p>84.25.0 Favqulodda vaziyatlarda xavfsizlikni ta'minlash bo'yicha faoliyat</p>	
4.	Kasbiy standartning qisqacha mazmuni:	Favqulodda vaziyatlarni oldini olishga tayyorgarlik va bartaraf etish uchun zarur bo'lgan bilim, tajriba va malakalarni belgilovchi me'yorlar va qoidalarni belgilash	
5.	Qamrab olingan kasblar ro'yxati va malaka darajasi:	<b>Kasblar kodi va nomi:</b>	<b>TMR dagi malaka darajasi:</b>
		54110005 Qutqaruvchi	3
		54110007 Qutqaruvchi-alpinist	3
		54110010 Qutqaruvchi-g'avvos	3
		54110011 Qutqaruvchi-haydovchi	3
		54110015 Qutqaruvchi-yong'in o'chiruvchi	3
		54110004 Qutqaruv Smena boshlig'i	4
		54110006 Qutqaruvchi-aloqachi	4
		54110013 Qutqaruvchi-kinolog	4
		54110014 Qutqaruvchi-yo'riqchi	4
		54110009 Qutqaruvchi-feldsher	5

### III. Kasbiy faoliyat turining funksional xaritasi

Kasblar		Mehnat funksiyalari		Mehnat vazifalari	
T/r	Kodi va nomi	Kodi	Nomi	Kodi	Nomi
1	54110005 Qutqaruvchi	A1.3	Favqulodda vaziyatlarda jabrlanuvchilarni qidirish va qutqarish	A1.01.3	Favqulodda vaziyat sodir bo'lgan hududda qidiruv ishlarini amalga oshirish
				A1.02.3	Qulagan binolar, tor va ko'rish qiyin bo'lgan joylarda vizual va ovozli qidiruvni olib borish
				A1.03.3	Jabrlanganlarni qutqaruv asbob-uskunalarini yordamida chiqarish
		A2.3	Favqulodda vaziyatlarda qutqaruv asbob-uskunalarini to'g'ri va samarali qo'llash	A2.01.3	Qutqaruv asbob-uskunalarini to'g'ri va xavfsiz ishlatish
				A2.02.3	Qo'l kuchi yordamida ishlatiladigan mexanik, gidravlik, pnevmatik va elektr asbob anjomlarni ishlatish
		A3.3	Favqulodda vaziyatlarda qutqaruv ishlarini amalga oshirish	A3.01.3	Favqulodda vaziyatni bartaraf etish, yerda, suvda, balandlik, yong'in va boshqa avariya hamda turli favqulodda vaziyatlarda jabrlanganlarni qutqarish
2	54110007 Qutqaruvchi-alpinist	B1.3	Balandlikda va qiyin sharoitlarda qutqaruv ishlarini olib borish	B1.01.3	Qiyin, tog'li hududlarda xavfsiz harakat qilish, arqonlar, va boshqa tog'da qutqaruv anjomlardan to'g'ri va samarali foydalanish
				B1.02.3	Qutqaruv joyiga chiqishda va jabrlanuvchini tushirishda maxsus alpinistik texnikalardan foydalanish
		B2.3	Alpinistik asbob-uskunalaridan va maxsus texnikalardan foydalanish	B2.01.3	Texnika qoidalariga muvofiq tarzda alpinistik jihozlar bilan ishlash, yuqoriga va pastga harakat qilish
		B3.3	Qutqaruv ishlarini xavfsiz va samarali amalga oshirish	B3.01.3	Xavfli qutqaruv ishlari davomida shaxsiy himoya vositalari va xavfsizlik choralari qo'llash
3	54110010 Qutqaruvchi-g'avvos	D1.3	Favqulodda vaziyatlarda tayyorgarlik va rejalashtirish ishlarini amalga oshirish	D1.01.3	Suv osti topografiyasi, oqimlar va xavfli joylarni o'rganish
				D1.02.3	Suvda qutqaruv asbob-anjomlarini va boshqa jihozlarni tayyorlash
				D1.03.3	Jamoa bilan hamkorlikda suvdagi qutqaruv taktikalarini ishlab chiqish

		D2.3	Favqulodda vaziyatlarda jabrlanuvchilarni qidirish va qutqarish ishlarini bajarish	D2.01.3	Suvda cho'kkan va yo'qolgan jabrlanuvchilarni qidirish
				D2.02.3	Jabrlanuvchini topgach, uni yuqoriga olib chiqish uchun maxsus usullardan foydalanish
		D3.3	Favqulodda vaziyatlarda jabrlanuvchilarga birinchi yordam ko'rsatish.	D3.01.3	Jabrlanuvchilarni ko'zdan kechirish, nafas olishi va yurak urishini tekshirish
				D3.02.3	Suvda ko'p vaqt qolgan jabrlanuvchilarga tezkor yordam berish
4	54110011 Qutqaruvchi-haydovchi	E1.3	Qutqaruvchilarni favqulodda vaziyat joyiga tez va xavfsiz yetib borishini ta'minlash	E1.01.3	GPS, navigator va dispetcher ko'rsatmasi asosida yo'l harakatining real sharoitida tez va xavfsiz yo'lini tanlash
				E1.02.3	Hodisa joyidagi yo'l infratuzilmasi sharoitini baholash, xavf tug'diruvchi to'siq va uchashtalarni aniqlash hamda transport vositalari harakati uchun xavfsiz alternativ yo'nalishlarni ishlab chiqish
		E2.3	Qutqaruv mashinalarini va qutqaruv maxsus texnikalarini boshqarish	E.2.01.3	Maxsus avtotransport vositalarini xavfsiz va samarali boshqarish
				E2.02.3	Avtomobil shassisida joylashgan maxsus uskunalarni ishga tushirish
		E3.3	Favqulodda vaziyatlarda qutqaruv ishlarida ishtirok etish	E3.01.3	Favqulodda vaziyatlarda qutqaruv ishlarini bajarish, aholining xavfsiz evakuatsiyasini ta'minlash hamda maxsus texnik yordam ko'rsatish
		5	54110015 Qutqaruvchi-yong'in o'chiruvchi	F1.3	Yonish manbaini aniqlash va unga qarshi samarali kurash choralarini qo'llash
F1.02.3	Yong'inga mos ravishda suv, ko'pik, gaz, poroshok kabi o'chirish moddalarini tanlash va ishlatish				
F2.3	Yong'in o'chirishda maxsus texnika, asbob-uskuna va moddalardan foydalanish			F2.01.3	Yong'in o'chirish mashinasi kabi texnika vositalarini ishga tayyor holda saqlash va boshqarish
				F2.02.3	Yong'in tarqalishini cheklash uchun uskunalarni taktik va strategik jihatdan to'g'ri joylashtirish

		F3.3	Yong'in yuzaga kelganda odamlarni qutqarish va evakuatsiya qilish	F3.01.3	Yong'in tarqalish darajasi, xavfli zonalar va evakuatsiya yo'llarini aniqlash
				F3.02.3	Harakatlanish qobiliyatini yo'qotgan hushsiz holatdagi jabrlanuvchilarni maxsus texnik vositalar yordamida xavfsiz hududga olib chiqish va tibbiy yordam ko'rsatish uchun topshirish
6	54110004 Qutqaruv smena boshlig'i	G1.4	Smena vaqtida qutqaruv ishlarini to'liq tashkil etish	G1.01.4	Smena shaxsiy tarkibining kun tartibi asosida vazifalarini taqsimlash
				G1.02.4	Muammo va xavflarni tezda aniqlash va bartaraf etish
		G2.4	Smena davomida texnik vositalar, transport va jihozlardan foydalanish	G2.01.4	Qutqaruv ishlarida ishlatiladigan barcha texnik vositalar va jihozlarning texnik holatini kuzatish
				G2.02.4	Favqulodda vaziyat joyiga jalb etilgan qutqaruv transport vositalarining harakatini boshqarish, harakat xavfsizligini ta'minlash va texnik sozlikni nazorat qilish
7	54110006 Qutqaruvchi- aloqachi	H1.4	Qutqaruv ishlari jarayonida axborot almashishni ta'minlash	H1.01.4	Shtab va boshqa maxsus xizmatlar o'rtasida aloqani o'rnatish va uni nazorat qilish
				H1.02.4	Bir vaqtning o'zida bir nechta qutqaruv guruhleri bilan axborot almashishni ta'minlash
		H2.4	Qutqaruv guruhleri o'rtasida tez va aniq aloqa o'rnatish	H2.01.4	Qutqaruv guruhleri o'rtasida buyruqlar va vaziyatlar haqidagi axborotni o'z vaqtida yetkazish
				H2.02.4	Qutqaruv guruhning holati va harakatlari to'g'risida ma'lumotlarni shtabga hamda boshqaruv markaziga yetkazish
8	54110013 Qutqaruvchi- kinolog	K1.4	Xizmat itlarini parvarishlash va tayyorlash	K1.01.4	Qutqaruv itlarini qutqarish ishlariga tayyorlash hamda ular bilan amaliy mashg'ulotlar olib borish
				K.02.4	Itlarning tibbiy ko'riklarini, vaksinatsiyalarini va dori-darmonlarni o'z vaqtida berish
				K1.03.4	Itlarga ovozi, qo'l va boshqa buyruqlarni aniq va samarali o'rgatish
		K2.4	Itlarni favqulodda vaziyatlarda jabrlanganlarni qidirishga o'rgatish	K2.01.4	Itlarni qidiruv-qutqaruv vazifalariga mos ravishda, ularning iqtidori va qobiliyatiga qarab mashqlar o'tkazish

				K2.02.4	Itlarni turli favqulodda vaziyatlarda jabrlanganlarni aniqlash, topish va qutqarish ishlariga o'rgatish
		K3.4	Qidiruv-qutqaruv ishlarini xizmat itlari bilan amalga oshirish	K3.01.4	Itning harakatlarini kuzatish, buyruqlarini bajarish hamda it yordamida jabrlangan va bedarak yo'qolgan shaxslarni qidirish
9	54110014 Qutqaruvchi- yo'riqchi	L1.4	Shaxsiy tarkibni ish jarayonida mehnatni muhofaza qilish qoidalariga rioya qilishini nazorat qilish	L1.01.4	Qutqaruvchi shaxsiy tarkibining xavfsizlik qoidalari va mehnatni muhofaza qilish talablariga qat'iy amal qilishini nazorat qilish
				L1.02.4	Qutqaruvchilarning shaxsiy himoya vositalaridan to'g'ri, xavfsiz va doimiy foydalanishini nazorat qilish
		L2.4	Shaxsiy tarkibini texnika xavfsizligi qoidalariga rioya etishlarini nazorat qilish	L2.01.4	Qutqaruvchilarning texnika xavfsizligi talablariga qat'iy amal qilishini nazorat qilish
		L3.4	Qutqaruv jarayonida qutqaruvchilarga yo'riqlar berish	L3.01.4	Qutqaruv ishlarini amalga oshirish uchun zarur yo'l-yo'riqlar va vazifalarni tushuntirish
10	54110009 Qutqaruvchi- feldsher	M1.5	Jabrlanganlarni qutqaruv ishlarida qatnashish	M1.01.5	Qutqaruv jamoasi bilan birgalikda vayronalar ostidan jabrlanganlarni qutqarish, xavfli hududlardan evakuatsiya qilish va birinchi yordam ko'rsatish ishlarini bajarish
		M2.5	Favqulodda vaziyat joyida jabrlanuvchilarga birinchi tibbiy yordam ko'rsatish uchun zarur tibbiy asbob-uskunalar va dori-darmonlardan to'g'ri foydalanish	M2.01.5	Qutqaruv jarayonida zarur bo'ladigan dori-darmonlar, tibbiy asbob-uskunalar va birinchi yordam vositalarini tekshirib, ularni foydalanishga tayyor holatga keltirish
		M3.5	Jabrlanuvchilarga birinchi tibbiy yordam ko'rsatish	M3.01.5	Jabrlanuvchilarning umumiy ahvolini tezkor baholash, hayotiy belgilarni aniqlash va zarur birinchi tibbiy yordam choralarini ko'rsatish

#### IV. Kasblar xaritasi va mehnat funksiyalari tavsifi

Kasbning nomi:	Qutqaruvchi	
Mashg'ulot nomining kodi:	54110	
TMR bo'yicha malaka darajasi:	3	
Malakani baholashga qo'yiladigan talablar	Tavsiya etiladi	
Amaliy tajriba (ish staji)ga qo'yilgan talablar:	Ish staji talab etilmaydi	
Layoqatiga va shaxsiy kompetensiyalarga qo'yilgan talablar:	<p>- 18 yoshga to'lgan 30 yoshdan oshmagan bo'lishi, erkak, yuqori darajadagi jismoniy tayyorgarlik va chidamli, jismonan sog'lom va harbiy xizmatni o'tagan bo'lishi, Qutqaruvchi bo'lish uchun ishga qabul qilishdan oldin va mehnat faoliyati davomida tibbiy ko'riklardan o'tish talab qilinadi.</p> <p>- Belgilangan qoidalarga rioya qilish.</p> <p>Mehnat intizomi va xizmatga sadoqat.</p> <p>O'z-o'zini baholash va tanqidiy fikrlash.</p> <p>Kamchiliklarni anglash va ularni bartaraf etish ustida ishlash.</p> <p>Tez o'zgaruvchan muhitda ishlashga tayyorlik.</p> <p>Yangi shart-sharoitlarga oson ko'nikish.</p> <p>Qiyin, xavfli va uzoq muddatli qutqaruv operatsiyalarida faol ishtirok.</p> <p>O'zaro ishonch va hamjihatlikni ta'minlash.</p> <p>Qutqaruv texnikasi va vositalari bo'yicha bilimga ega bo'lish.</p> <p>Notinch va xavfli sharoitlarda ham to'g'ri fikr yuritish, muammoni hal qilish.</p>	
Ta'lim darajasiga qo'yilgan talablar:	Boshlang'ich professional ta'lim	
Norasmiy va informal ta'lim bilan bog'liqligi:	<p>1) Umumiy o'rta ta'lim+norasmiy (informal) ta'lim yoki amaliy tajriba</p> <p>2) Favqulodda vaziyatlar vazirligi tomonidan tashkil etilgan qisqa muddatli qayta tayyorlash va malaka oshirish kurslaridan o'tishlari talab etiladi</p>	
Kasbiy standartlar reyestrda mavjudligi:	-	
Kasbning boshqa mumkin bo'lgan nomlari:	-	
Boshqa kasblar bilan aloqadorligi:	<b>TMR bo'yicha malaka darajasi:</b>	<b>Kasbning nomi:</b>
	3	Qutqaruvchi-alpinist
	3	Qutqaruvchi-g'avvos
	3	Qutqaruvchi-haydovchi
	3	Qutqaruvchi-yong'in o'chiruvchi
	4	Qutqaruv Smena boshlig'i
	4	Qutqaruvchi-aloqachi
	4	Qutqaruvchi-kinolog

		4	Qutqaruvchi-yo'riqchi
		5	Qutqaruvchi-feldsher
<b>Mehnat funksiyalarining tavsifi</b>			
<b>Kodi va nomi</b>	<b>Mehnat vazifalari</b>		
<b>A1.3-</b> Favqulodda vaziyatlarda jabrlanuvchilarni qidirish va qutqarish	<b>A1.01.3-</b> Favqulodda vaziyat sodir bo'lgan hududda qidiruv ishlarini amalga oshirish	<b>O'qitish natijalari</b>	
		<b>Mehnat harakatlari:</b>	
		1. Favqulodda vaziyat sodir bo'lgan hududga yetib borish va hududdagi xavf darajasini baholash	
		2. Qulagan binolar, g'ishtlar, qurilish konstruksiyalarini olib tashlash	
		3. Jarohatlanganlarni maxsus nosilka va boshqa vositalarda xavfsiz hududga olib chiqish	
		4. Zarur hollarda dronlar, robotlar yordamida qidiruv olib borish	
		<b>Ko'nikmalar:</b>	
		Uzoq vaqt harakatda bo'lish, og'ir yuk ko'tarish, qiyin sharoitda ishlash	
		Balandlikka chiqish, tor joylardan o'tish va qulagan inshootlar ichida xavfsiz harakatlanish	
		Ruhiy zarba olgan shaxslarni tinchlantirish	
		Og'ir, fojiali vaziyatlarda o'zini to'g'ri tutish	
		<b>Bilimlar:</b>	
		Favqulodda vaziyatlar turlari va ularning xususiyatlari	
		Har bir ofat turiga mos asosli taktik yondashuv usullari	
		Qutqaruv taktikalari	
	Yo'nalishli qidiruv, signallarga asoslangan izlash usullari		
	Jabrlanuvchilarni aniqlash va ularning joylashuvini belgilashning zamonaviy usullari, texnik vositalari va identifikatsiya tartibi		
	Qidiruv asbob-uskunalari xususiyatlari		
	Favqulodda vaziyatlarda xavfsizlik qoidalari, mehnat muhofazasi talablari hamda shaxsiy himoya vositalaridan foydalanish tartibi		
	<b>A1.02.3-</b> Qulagan binolar, tor va ko'rish qiyin bo'lgan joylarda vizual va ovozli qidiruvni olib borish	<b>Mehnat harakatlari:</b>	
1. Qulagan binolar va g'orlarda xavfli va xavfsiz joylarni aniqlash, qidiruv uchun xavfsiz yo'nalishlarni belgilash va konstruksiyalarga ta'sir qiluvchi kuchlarni tahlil qilish			
2. Ko'rinmas va tor joylarni ehtiyotkorlik bilan ko'zdan kechirish, zarar ko'rgan obyektlarni tekshirish hamda yorituvchi vositalarni ishga tushirish			
3. Jabrlanuvchilar ovozini aniqlash, texnik vositalar orqali tinglash va signallar orqali aloqa o'rnatish			

		<p><b>Ko'nikmalar:</b></p> <p>Murakkab muhitda jabrlanuvchilarni vizual aniqlash, tor va kam yorug'likda tez ko'rish, halokatli va xavfli zonalarini belgilash</p> <p>Jabrlanuvchi ovozini va signallarini tinglash, ovozni kuchaytirish vositalaridan foydalanish hamda atrof muhitda ovozlarni to'g'ri tahlil qilish</p> <p>Qatlamlar orasida xavfsiz harakat qilish</p> <p>Qidiruv texnik vositalaridan samarali foydalanish va ularning ishlashini nazorat qilish</p> <p>Qutqaruvchilar bilan samarali hamkorlik qilish, tez aloqa o'rnatish va vaziyatga moslashish</p> <p>Psixologik chidamlilik va stressni boshqarish</p> <p><b>Bilimlar:</b></p> <p>Qidiruv jarayonida vizual va ovozli usul turlari</p> <p>Qulagan binolar strukturasi va buzilishi xususiyatlari, g'orlar hamda tor va ko'rinmas joylarda harakatlanish qoidalari</p> <p>Qidiruv jarayonida foydalaniladigan texnik uskunalarning xususiyatlari hamda texnika va asboblarning ishlash tamoyillari</p> <p>Jabrlanuvchi holatini baholash va jabrlanuvchilarni xavfsizlik bilan evakuatsiya qilish usullari</p>
	<p>A1.03.3- Jabrlanganlarni qutqaruv asbob-uskunalarini yordamida chiqarish</p>	<p><b>Mehnat harakatlari:</b></p> <p>1. Qutqaruv asbob-uskunalarning to'liqligini nazorat qilish, ularni foydalanishga tayyorlash</p> <p>2. Jabrlanuvchining joylashuvini aniqlash, holatini tekshirish va qutqaruv ishlarini rejalashtirish hamda xavfsizlik choralarini belgilash</p> <p>3. Keskichlar bilan to'siqlarni kesish, domkratlar yordamida og'ir yuklarni ko'tarish va qutqaruv operatsiyasini aniq va ehtiyotlik bilan o'tkazish</p> <p>4. Qutqaruvchilar o'rtasida tezkor aloqa va ishni muvofiqlashtirish, zarur hollarda qo'shimcha yordam chaqirish hamda xavfsizlik qoidalari qat'iy rioya qilish</p> <p><b>Ko'nikmalar:</b></p> <p>Asbob-uskunalarini maqsadli, to'g'ri va xavfsiz ishlatish, va har birini vazifasiga mos ravishda qo'llash</p> <p>Jabrlanuvchini asbob-uskunalar yordamida ehtiyotlik bilan va jarohatsiz chiqarish</p> <p>Qutqaruv operatsiyasida xavfsizlik qoidalari qat'iy rioya qilish</p> <p>Asbob-uskunalaridan foydalanishda o'zini va atrofdagilarni himoya qilish hamda ehtimoliy xatarlarni oldindan aniqlash</p>

		Jabrlanuvchini chiqarish jarayonini to'g'ri rejalashtirish
		Qutqaruvchilar o'rtasida samarali hamkorlikni ta'minlash
		<b>Bilimlar:</b>
		Asboblarni ishlatishdagi xavf-xatar turlari va ularni bartaraf etish usullari
		Qutqaruv operatsiyalarida keskichlar va domkratlar foydalanish usullari
		Qulagan binolar, g'orlar, tor va ko'rinmas joylardagi harakat qilish qoidalari va ulardagi xavf turlari
		Hududning geologik va konstruktiv xususiyatlari
<b>Mas'uliyat va mustaqillik:</b>		1. Jabrlanuvchilarning xavfsizligi va hayoti uchun javobgarlik
		2. Shaxsiy va umumiy xavfsizlikni ta'minlash, tezkor qarorlar qabul qilish
		3. Muayyan vaziyatlarda tashabbus ko'rsatish
		4. Texnologiya va vositalardan mustaqil foydalanish
A2.3- Favqulodda vaziyatlarda qutqaruv asbob-uskunalarini to'g'ri va samarali qo'llash	A2.01.3- Qutqaruv asbob-uskunalarini to'g'ri va xavfsiz ishlatish	<b>Mehnat harakatlari:</b>
		1. Qutqaruv ishlarini boshlashdan oldin barcha asbob-uskunalarining texnik holatini tekshirish
		2. Vaziyatga mos keladigan asbob-uskunani tanlash
		3. Shaxsiy muhofaza vositalarini (qo'lqop, shlem, ko'zoynak va h.k.) ishlatish
		4. Asboblarni ishlatishda o'zini va jamoa a'zolarini himoya qilish uchun xavfsizlik choralari ko'rish
		5. Qutqaruv operatsiyasi davomida asboblarning samarali foydalanishini nazorat qilish
		6. Qutqaruv jarayonida asboblarning ishlash vaziyatini muntazam nazorat qilish
		<b>Ko'nikmalar:</b>
		Qutqaruv vaziyatiga muvofiq asboblarni to'g'ri tanlab olish va ishlatish
		Buzilgan hamda nosoz asboblarni darhol aniqlab, ulardan foydalanmaslik
		Shaxsiy muhofaza vositalarini to'g'ri qo'llash
		Asboblar bilan ishlaganda texnika xavfsizlik qoidalariga amal qilish
		Asboblarni tozalash, texnik xizmat ko'rsatish va to'g'ri saqlash
		Asboblarda paydo bo'lgan nosozliklarni zudlik bilan aniqlab, kerakli choralarni ko'rish
		<b>Bilimlar:</b>
Har bir asbobning texnik xususiyatlari, ishlash tartibi va maqsadi		
Asboblar qaysi turdagi favqulodda vaziyatlarda qo'llanishi turlari		

		Asboblarning ishlash qobiliyatini baholash va nosozliklarni aniqlash usullari
		Asboblardan ishlashda amaliyotda qo'llaniladigan xavfsizlik standartlari, shaxsiy muhofaza vositalaridan foydalanish tartibi
A2.02.3- Qo'l kuchi yordamida ishlatiladigan mexanik, gidravlik, pnevmatik va elektrik asbob anjomlarni ishlatish		Asboblarni ishlatishdan oldin va keyin ularga texnik xizmat ko'rsatish, tozalash va saqlash tartibi
		Asboblarda nosozlik yuzaga kelganda ularni tuzatish usullari
		<b>Mehnat harakatlari:</b>
		1. Qo'l kuchi yordamida ishlatiladigan vositalarini to'g'ri tayyorlash, tekshirish va ishlab chiqaruvchi ko'rsatmalariga muvofiq xavfsiz qo'llash
		2. Qo'l kuchi yordamida ishlatiladigan vositalarini to'g'ri va xavfsiz ishlatish, qurilmalarni ishga tushirishda xavfsizlik me'yorlariga qat'iy rioya qilish
		3. Mexanik, gidravlik, pnevmatik va elektrik asbob anjomlarni to'g'ri ishga tushirish va ehtiyotkorlik bilan boshqarish
		4. Qo'l kuchi yordamida bajariladigan harakatlarni ortiqcha kuch ishlatmasdan, samarali va aniq bajarish
		5. Panjaralar, devorlar va to'siqlarni buzish, kesish, surish harakatlarini aniq va xavfsiz bajarish
		6. Qo'l kuchi yordamida ishlatiladigan mexanik, gidravlik, pnevmatik va elektrik asbob anjomlarni yig'ish va saqlash
		<b>Ko'nikmalar:</b>
		Qo'l kuchi yordamida ishlatiladigan vositalaridan samarali foydalanish
		Mexanik gidravlik, pnevmatik va elektrik asbob anjomlarni boshqarish va ishlatish
		Mexanik gidravlik, pnevmatik va elektrik asbob anjomlarni xavfsiz ishlatish
		Asboblarni texnik vaziyatiga qarab baholash va to'g'ri saqlash
		<b>Bilimlar:</b>
		Qo'l kuchi yordamida ishlatiladigan vositalar turlari va vazifalari
		Bolg'a bilan zarba berish, lom bilan tirkash, arra bilan kesish kabi harakatlarni samarali va xavfsiz bajarish usullari
		Mexanik gidravlik, pnevmatik va elektrik asbob anjomlarni to'g'ri qo'shish, ishlatish va xavfsiz vaziyatda faollashtirish usullari
		Uskunaning ishlash jarayonida texnik vaziyatini kuzatish, ovoz, titrash va yuqori isish kabi belgilarni to'g'ri baholash metodikalari
		Asbob-uskunalarini xavfsiz ishlatish qoidalari

		Ishlashdagi xavf-xatarlar va ularni bartaraf qilish usullari
		Uskuna ishdan chiqqanda xavfli vaziyat yuzaga kelsa, tezkorlik bilan reaksiya qilish, qurilmani o'chirish va almashtirish qoidalari
		1. Qutqaruvchi belgilangan vazifa doirasida mustaqil qaror qabul qilish
		2. O'z ish joyida texnik vositalarni ishga tushirish, nazorat qilish va vaqtincha xizmat ko'rsatishni rahbarsiz amalga oshirish
	<b>Mas'uliyat va mustaqillik:</b>	3. Olov, g'ovlar, vayrona ostidagi shaxslarni qutqarishda faollik va tashabbuskorlik ko'rsatish
		<b>Mehnat harakatlari:</b>
		1. Yong'inni o'chirish, jabrlanganlarni issiqlik va gazlardan himoyalab olib chiqish hamda qulagan inshootlar ostida qolganlarni izlab qutqarish
		2. Qayiq va boshqa suvda qutqaruv asboblari yordamida suvda qolganlarni qutqarish, suv toshqinlarida evakuatsiyani tashkil etish va suv ostidagi obyektlarda izlash ishlarini o'tkazish
A3.3- Favqulodda vaziyatlarda qutqaruv ishlarini amalga oshirish	A3.01.3- Favqulodda vaziyatni bartaraf etish, yerda, suvda, balandlik, yong'in va boshqa avariya hamda turli favqulodda vaziyatlarda jabrlanganlarni qutqarish	3. Yer ostida qolganlarni maxsus qurilmalar bilan aniqlash, balandlikda maxsus vositalar yordamida ishlash va ko'chish hamda g'orlarda qidiruv-qutqaruv ishlarini olib borish
		4. Zavod va stansiyalardagi yong'in va portlashlarda jabrlanganlarni qutqarish, xavfli moddalar tarqalganda maxsus himoya vositalaridan foydalanish hamda zaharli muhitda xavfsiz harakatlanish
		5. Favqulodda vaziyatlarga tayyorgarlik ko'rish uchun aholini ogohlantirish, evakuatsiya rejalarini ishlab chiqish, o'quv mashg'ulotlar o'tkazish va xavfli obyektlarni nazorat qilish
		<b>Ko'nikmalar:</b>
		Og'ir sharoitlarda uzoq ishlash, balandlikka chiqish va og'ir yuk ko'tarish qobiliyati hamda suvda erkin suzish
		Tez tibbiy yordam ko'rsatish, xavfli kimyoviy va radiatsion moddalar bilan ishlash hamda yong'inni o'chirish va xatarlarni aniqlash
		<b>Bilimlar:</b>
		Tabiiy (yer silkinishi, suv toshqini, yong'in) va texnogen (portlash, avariya) favqulodda vaziyatlar turlari, ularning sabablari va oqibatlari
		Yong'in va ularni o'chirish usullari, yong'in o'chirish vositalarini to'g'ri qo'llash, yong'in paytida harakat qilish taktikalari hamda xavfsiz evakuatsiya usullari

		Suvdagi xavflar va ularga qarshi choralar, akvalang, qayiq va boshqa suv vositalarini to'g'ri qo'llash, suvda qolganlar bilan muloqot va qutqarish usullari
		Balandlikda harakat qilish usullari, yer ostidagi qutqaruv ishlari (tunnellar, g'orlar, vayronalar) va qulash, ko'chish kabi xavflarda xavfsizlik choralari
		Qutqaruv texnikasi va asboblardan foydalanish, texnikaviy avariylar vaqtida harakat qilish usullari hamda energetika, kimyo va transport sohalarida xavfsizlik asoslari
		Jabrlanganlar bilan muloqot qilish, qo'ruvdagi odamlarni tinchlantirish usullari
		Favqulodda vaziyatlarga oid qonunlar va me'yoriy hujjatlar, davlat standartlari, hamda qutqaruvchi mas'uliyatlari va vazifalar
	<b>Mas'uliyat va mustaqillik:</b>	1. Jabrlanganlar va o'zining hayotiga tahdid soluvchi xatolarga yo'l qo'ymaslik
		2. Qutqaruv jihozlaridan belgilangan qoidalar asosida foydalanish
		3. Qutqaruv jihozlaridan belgilangan qoidalar asosida foydalanish
		4. Og'ir sharoitda tez va aniq qaror chiqarish, qidiruv usulini tanlash, jabrlanganni olib chiqish
		5. Komandir ko'rsatmasini kutmasdan xavfni bartaraf etish uchun to'g'ri qaror qabul qilish va tezkor harakat
		6. Mavjud asbob-uskunalarini vaziyatga moslashtirib foydalanish
		7. Texnik vositalarni tanlashda va foydalanishni mustaqil belgilash
	<b>Texnik va/yoki texnologik talab</b>	<p>Qutqaruv asboblari va vositalari – keskichlar, domkratlar, arqonlar va boshqa mexanik qurilmalar</p> <p>Xavfsizlik qurilmalari – shaxsiy muhofaza vositalari (qo'lqop, shlem, ko'zoynak), gaz maskalari, ovoz va vizual signallar</p> <p>Transport vositalari – qayiq, katerlar, akvalanglar (suvda qutqarish uchun)</p> <p>Texnik qurilmalari – gidravlik vositalar, generatorlar</p> <p>Alpinistlik uskunalari – arqonlar, tros, karabinlar</p> <p>Asbob-uskunalar ishga tushirilmasdan oldin texnik holatini tekshirilishi va ishga tayyorlanishi shart</p> <p>Ish jarayonida shaxsiy muhofaza qilishi, asboblarni xavfsiz usulda ishlatish zarur</p> <p>Har bir asbob o'z vazifasiga mos ravishda ishlatilishi kerak, ortiqcha yuklanish va noto'g'ri qo'llashdan saqlanish lozim</p>

Kasbning nomi:	Qutqaruvchi-alpinist	
Mashg'ulot nomining kodi:	54110	
TMR bo'yicha malaka darajasi:	3	
Malakani baholashga qo'yiladigan talablar	Tavsiya etiladi	
Amaliy tajriba (ish staji)ga qo'yilgan talablar:	Ish staji talab etilmaydi	
Layoqatiga va shaxsiy kompetensiyalarga qo'yilgan talablar:	<p>18 yoshga to'lgan 30 yoshdan oshmagan bo'lishi, erkak, yuqori darajadagi jismoniy tayyorgarlik va chidamli, jismonan sog'lom va harbiy xizmatni o'tagan bo'lishi, Qutqaruvchi bo'lish uchun ishga qabul qilishdan oldin va mehnat faoliyati davomida tibbiy ko'riklardan o'tish talab qilinadi</p> <p>Belgilangan qoidalarga rioya qilish Mehnat intizomi va xizmatga sadoqat Kamchiliklarni anglash va ularni bartaraf etish ustida ishlash</p> <p>Tez o'zgaruvchan muhitda ishlashga tayyorlik Qiyin, xavfli va uzoq muddatli qutqaruv operatsiyalarida faol ishtirok O'zaro ishonch va hamjihatlikni ta'minlash Qutqaruv texnikasi va vositalari bo'yicha bilimga ega bo'lish Favqulodda vaziyatlarning turlari va ularga qarshi harakat taktikalarini bilishlari Jismoniy tayyorgarlik va chidamlilik (yugurish, shturm, yuk ko'tarish, suvda ishlash va boshqalar) ko'nikmalariga ega bo'lish Qutqaruv ishlarini amalga oshirishda yuqori samaradorlik</p>	
Ta'lim darajasiga qo'yilgan talablar:	Boshlang'ich professional ta'lim	
Norasmiy va informal ta'lim bilan bog'liqligi:	<p>1) Umumiy o'rta ta'lim+norasmiy (informal) ta'lim yoki amaliy tajriba</p> <p>2) Favqulodda vaziyatlar vazirligi tomonidan tashkil etilgan qisqa muddatli qayta tayyorlash va malaka oshirish kurslaridan o'tishlari talab etiladi</p>	
Kasbiy standartlar reyestrda mavjudligi:	-	
Kasbning boshqa mumkin bo'lgan nomlari:	-	
Boshqa kasblar bilan aloqadorligi:	<b>TMR bo'yicha malaka darajasi:</b>	<b>Kasbning nomi:</b>
	3	Qutqaruvchi
	3	Qutqaruvchi-g'avvos
	3	Qutqaruvchi-haydovchi
	3	Qutqaruvchi-yong'in o'chiruvchi

	4	Qutqaruv Smena boshlig'i
	4	Qutqaruvchi-alloqachi
	4	Qutqaruvchi-kinolog
	4	Qutqaruvchi-yo'riqchi
	5	Qutqaruvchi-feldsher
Mehnat funksiyalarining tavsifi		
Kodi va nomi	Mehnat vazifalari	
B1.3- Balandlikda va qiyin sharoitlarda qutqaruv ishlarini olib borish	B1.01.3- Qiyin, tog' va balandlikdagi joylarda xavfsiz harakat qilish, arqonlar, va boshqa tog'da qutqaruv anjomlardan to'g'ri va samarali foydalanish	O'qitish natijalari
		Mehnat harakatlari:
		1. Balandlikda xavfsiz harakat qilish, harakatlanishda tana vaznini nazorat qilish
		2. Har bir harakatni rejali va ehtiyotlik bilan amalga oshirish va alpinistik jihozlardan samarali foydalanish
		3. Har bir harakatdan avval yuqori va pastni vizual kuzatish orqali xavfni baholash
		4. Arqon bog'lash texnikasi-turli xil bog'lamlarni to'g'ri va tez bog'lay olish
		5. Bosim va harakatdagi barqarorlikni ta'minlash uchun uskunalarni to'g'ri blokirovka qilish
		6. Qiyin sharoitda ob-havo sharoiti, tog' relyefi, shamol, yo'lsizlik kabi omillarga moslashish va harakat qilish
		7. Jabrlanuvchini topish, uni baholash (tana jarohati, vaziyati) va maxsus nosilkada tushirish
		8. Xavfsizlik choralari bog'lamlar, arqon va boshqa anjomlar mustahkamligini tekshirish
		9. Murakkab joy va sharoitlarda odamni evakuatsiya qilish (ko'tarish hamda tushirish)
		10. Doimiy ravishda mashq qilish — simulyatsiya qilingan shoshilinch vaziyatlar orqali ko'nikmalarni oshirish
		11. Jismoniy tayyorgarlik — chidamlilik, kuch, harakatlarni muvofiqlashtirish
		Ko'nikmalar:
		Balandlikda o'zini himoya qilish va muvozanatni saqlash, xavflarni aniqlash va tezkor qaror qabul qilish
		Arqonlar bilan ishlash
		Nostandart, murakkab chiqish va tushish
		Balandlik uchun kamarlar, kaska va boshqa shaxsiy himoya vositalari uskunalar holatini tekshirish, ularni texnik xizmat ko'rsatish
		Jabrlanuvchini aniqlash, uning vaziyatini baholash
		Balandlik va yopiq joylardan qo'rqmaslik, chidamlilik, yuk ko'tarish va uzoq vaqtda harakatda bo'lish
Bilimlar:		
Balandlikda ishlash nazariyasi va texnikasi		

		Arqonlar va uskunalar turlari va ularning vazifalari
		Arqon bog'lamlari nazariy asoslari va harakatlanish tizimlari
Anjomlarning tuzilishi va ishlash prinsiplari		
Anjomlarning ishlash holatini tekshirish, xizmat ko'rsatish va ta'mirlash qoidalari		
Qutqaruv ishlarining bosqichlari: izlash, baholash, qutqarish, evakuatsiya		
Favqulodda vaziyatlar (tog'da, qurilishlarda halokatlar, yong'in, yer ko'chishi va h.k.)da harakat qoidalari		
Jabrlanuvchini evakuatsiya qilish strategiyasi va metodlari		
Jabrlanuvchini xavfsiz holda ko'chirish va nosilkadan foydalanish qoidalari		
Muzlagan, yomg'irli va shamolli sharoitda harakat qilish tavsiyalari		
Tana og'irligi, kuchlar ta'siri va markazlashgan yuklamalarning hisob-kitobi		
Arqonga tushish bosimi va kuchlanish mexanizmlari		
Qutqarish tizimlarida kuch taqsimoti va muvozanatni saqlash usullari		
B1.02.3- Qutqaruv joyiga chiqishda va jabrlanuvchini tushirishda maxsus alpinistik texnikalardan foydalanish		<b>Mehnat harakatlari:</b>
		1. Tog', baland binolar, g'orlar hamda yer ostidan chiqish masofasini aniqlash
	2. Arqonlarni to'g'ri va sug'urta tizimlarini tayyorlash	
	3. Jabrlanuvchini vaziyatini tekshirish-og'irlik darajasi, harakatlana olish qobiliyati, jarohatlar	
	4. Uni maxsus nosilka, arboblok va kamar tizimiga to'g'ri joylashtirish	
	5. Nazorat ostida tushirish qurilmalari orqali harakatni nazorat qilish	
	6. Bir vaqtda 2 qutqaruvchi tushishi (bittasi jabrlanuvchi bilan, ikkinchisi yonida xavfsizlik uchun)	
	7. Arqonni harakat vaqtida sekin va nazoratli tushirish	
	8. Har bir harakatdan oldin sug'urta nuqtalarini tekshirish	
	9. Tizimdagi har bir anjomni tekshirish	
	10. Jabrlanuvchini tushirishda doimiy nazorat qilish	
	<b>Ko'nikmalar:</b>	
	Turli bog'lamlarni bog'lay olish	
	Masofani tez va xavfsiz o'tish tashkil qilish	
Jarohatlangan odamni nosilkaga joylashtirish va uni tanaga mustahkam bog'lash		

		Birga harakat qilish
		Jabrlanuvchini tushirishda stabillik, tezlik va xavfsizlikni ta'minlash
		Arqon turlarini farqlash (statik va dinamik) va to'g'ri holda tanlash
		Harakatlanish paytida turg'un va harakatdagi qutqaruvchilar bilan birgalikda ishlash
		Yuk taqsimoti va tana og'irligini tenglashtirishni tushunish
		<b>Bilimlar:</b>
		Arqonda harakat qilish nazariyasi — chiqish, ko'tarilish va tushish usullari
		Arqon bog'lamlari turlari va ularning qo'llanilishi
		Sug'urta tizimlari tuzilishi: to'g'ri bog'lash, ko'p nuqtali sug'urta, dinamik va statik yuklamalarni hisobga olish metodikalari
		Qutqaruv vositalarning tuzilishi va ishlash mexanizmi
		Arqonlar va uskunalarning sinov standarti va ishlash muddatlari
		Anjomlarni to'g'ri tanlash va tekshirish usullari
		Kuchlar taqsimoti-tana og'irligi, yuklamani markazlashtirish tartiblari
		Arqondagi kuchlanish, tushishdagi impuls bosimi (dinamik kuchlar)
		Turli burchaklardagi tortishda kuch yo'nalishi va sug'urta nuqtalariga ta'siri
		Qutqaruv operatsiyalarining bosqichlari: izlash, baholash, tuzish, tushirish, evakuatsiya
		Qiyin sharoitda qaror qabul qilish, xavf tahlili va xavfsizlikka e'tibor berish qoidalari
		Jabrlanuvchini baholash va uni qutqaruv tizimiga xavfsiz joylashtirish usullari
		Qor ko'chkisi, shamol bosimi, muzlagan yuzalarga oid xatarlar
		Balandlikdagi gipoksiya, kislorod yetishmovchiligi va ularning oqibatlari
